FARG‘ONA VODIYSIDA O‘SADIGAN BIR YILLIK SHUVOQ TARKIBIDAGI ARTEMIZININ MIQDORINI ANIQLASH

ОПРЕДЕЛЕНИЕ КОЛИЧЕСТВА АРТЕМИЗИНИНА В ПОЛЫНИ ОДНОЛЕТНЕЙ, РАСТЯЩЕЙ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ

DETERMINATION OF THE QUANTITY OF ARTEMISININ IN WORMWOOD ANNUAL GROWING IN THE FERGANA VALLEY

Obidjon Shaxabidinovich Abdulloyev, *Andijon davlat universiteti*
Kimyo kafedrasi dotsenti v.b., kimyo fanlari falsafa doktori (PhD), O‘zbekiston Tabobat akademiyasi a’zosi
Ibrohimjon Rahmonovich Asqarov, *Andijon davlat universiteti*
Kimyo kafedrasi professori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan ixtirochi, O‘zbekiston TABOBAT Akademiyasi raisi
Shaxobidin Xasanboyevich Abdulloyev, *Andijon davlat universiteti*
Kimyo fanlari doktori, Kimyo kafedrasi professori, O'zbekiston "TABOBAT" Akademiyasi a'zosi
Gavharoy Erkinjonovna Fozilova, *Andijon davlat universiteti*
Kimyo kafedrasi magistranti
Sharifa Akramovna Matamirova*, Toshkent tibbiyot akademiyasi*
assistent

DOI: https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol1.iss4.2022.92

Annotatsiya. *Artemisia annua L. o`simligining turli geografik mintaqalardagi vakillarining tarkibi dunyo olimlari tomonidan o`rganilib kelingan. Lekin O`zbekistonda o`sadigan vakillarining kimyoviy tarkibi hali to`liq o`rganilmagan. Mazkur tadqiqotda O`zbekistonda, xususan, Farg`ona vodiysida o`sadigan bir yillik shuvoq o`simligidan artemizininni ajratib olish va miqdorini aniqlash hamda uni IQ va Mass spektrlari taxlili keltirilgan.*

Аннотация. *Состав представителей растения Artemisia annua L. в разных географических регионах изучался учеными всего мира. Однако химический состав его представителей, произрастающих в Узбекистане, до сих пор полностью не изучен. Это исследование обеспечивает выделение и количественное определение артемизинина из однолетней полыни в Узбекистане, особенно в Ферганской долине, и его анализ с помощью ИК- и масс-спектров.*

Annotation. *The composition of the representatives of the plant Artemisia annua L. in different geographical regions has been studied by scientists around the world. However, the chemical composition of its representatives growing in Uzbekistan has not yet been fully studied. This study provides isolation and quantification of artemisinin from an annual wormwood plant in Uzbekistan, particularly in the Fergana Valley, and its analysis by IR and Mass Spectra.*

Kalit so`zlar. *Artemisia annua L., Plasmodium, COVID-19, bir yillik shuvoq, artemizinin, ekstraktsiya.*

Ключевые слова. *Artemisia annua L., Plasmodium, COVID-19, полынь однолетняя, экстракция.*

Keywords. *Artemisia annua L., Plasmodium, COVID-19, wormwood annual, extraction.*

Ilm fan shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi zamonda kasalliklarning turlari juda ham ko’payib bormoqda. Va ular yanada takomillashgan, tashqi va ichki muxitga moslashgan va

chidamli bo'lib bormoqda. Jaxon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti ekspertlari ma`lumotiga ko'ra yuqumli kasalliklarning 80% ini viruslar tashkil etadi. Hozirgi kunda virusli kasalliklar tibbiyotning eng dolzarb muammolaridan biridir. Ayni paytda viruslarning bir necha yuzlab turlari aniqlangan va yildan-yilga yangidan-yangi turdagi viruslar paydo bo'lishda davom etmoqda. Hozida milliardlab odamlar u yoki bu turdagi virusli kasalliklar bilan xastalangan.

XX asrning eng xavfli yuqumli kasalliklaridan biri bu – bezgak kasalligi hisoblanadi. O`sha davrda insoniyatning deyarli yarmi bezgak bilan kasallanish xavfi ostida, har yili 400 ming odam bezgakdan vafot etardi. Bezgak insoniyatga qadim zamonlardan beri turli ko'rinishlarda ma'lum bo'lgan va 100 dan ortiq mamlakatlarda eng xavfli keng tarqalgan parazitar kasalliklaridan biri hisoblanadi. Har yili bu virus 300-500 million odamda kasallik keltirib chiqardi va og'ir oqibatlarga olib keldi.

Bezgak paraziti Plasmodium protozoan turli xil bo'lib, uning to'rt xil turi odamlar uchun xosdir. Ular: *P. falciparum, P. vivex, P. malarae va P. ovale*. Ba'zi turlari, *P. Berghii va P. Yeolii* sutemizuvchilar sinfining boshqa turlariga hosdir. Bu kasallik ayol anofel chivinining chaqishi orqali odamdan odamga yuqadi. Yuqoridagi to'rt tur, odam organizmida tana haroratining tez ko'tarilishiga sabab bo'ladi, ammo ular kamdan-kam hollarda o'limga olib keladi. Qolgan turlari *maligin tertian, falciparum* bezgakning sababchisi bo'lib, agar u davolanmasa, sezilarli oqibatlarga va o'limga olib keladi. Organizmida uchraydigan bezgak parazitlari orasida *P. Falciparum* turi amalda mavjud bo'lgan barcha dorilarga qarshilik ko'rsatdi, shuning uchun u jiddiy kasallik va o'limning asosiy sababchisi bo'ldi. Kasallikning og'ir va murakkab shakli kuzatilgan bemorlarda o'lim darajasi 20-50% ni tashkil qiladi. Bezgak parazitlarining xinolin asosida bezgakka qarshi preparatlarga chidamliligini kuchayishi ushbu kasallikning sog'liqni saqlash sohasida asosiy muammo sifatida qayta paydo bo'lishiga va uning yangi joylar, populyatsiyalarga tarqalishiga katta hissa qo'shadi [1].

Bezgakni Plasmodium turkumidagi hasharotlari keltirib chiqaradi. Ushbu parazitlar odamlarni chaqadigan bezgak chivinlari tomonidan tarqaladi. Kasallikni bezgak chivinlari chaqishi bilan odamning qoniga tushadigan bir hujayrali parazitar bakteriya keltirib chiqaradi. Bezgakka qarshi kurashning asosiy usullari — bu chivinlar kelib chiqadigan botqoqlarni quritish, kasallikni erta davrida oldini oladigan chivinga qarshi to'rlar va dorilar hisoblanadi (biroq *Plasmodium* ularga ham bardosh bera olishi haqida ma'lumotlar bor). Bezgak, ayniqsa, bolalar o'limining eng qadimiy va jiddiy sabablaridan biri bo'lib qolmoqda. Bezgakka qarshi immunitetni shakllantiruvchi vaksina ko'p yillik intensiv ishlar va millionlab dollar sarflanganiga qaramay uzoq muddatda yaratilgan. Izlanishlar Gana, Malavi va Keniyada sinovdan o'tkazildi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, mazkur vaksina bezgakdan o'rtacha 40% hollarda va to'rt yildan ortiq bo'lmagan muddatga himoya qiladi. Bu esa boshqa kasalliklarga qarshi emlashlarga nisbatan juda zaif ko'rsatkich hisoblanadi. Biroq mutaxassislar vaksinaning bezgakka qarshi yagona davo bo'lishi dargumon ekanligi haqida ham ogohlantiradilar [2].

Hozirgi kunda butun dunyoga xavf solayotgan virusli kasalliklardan yana biri bu koronavirus infeksiyasi. Koronavirus turkumiga kiruvchi virus yuqishi natijasida kelib chiquvchi zotiljam (pnevmoniya) kasalligi bilan birinchi marta 2019 yil dekabr oyida Xitoy Xalq Respublikasining Xubey viloyatining Uxan shahrida joylashgan Xuanan nomli hayvon va dengiz mahsulotlari bozoriga aloqador bo'lgan mahalliy aholi vakillarida namoyon bo'lgan. Mazkur bozorda iste'mol uchun dengiz mahsulotlari, it go'shti, ilonlar va hatto ko'rshapalaklar ham sotilgan. Yangi koronavirusning xususiyatlari hozirgi kunda dunyoning ko'plab laboratoriyalarida o'rganilmoqda. Olimlarning izlanishlari natijasida kasallik qo'zg'atuvchisi topilgan bo'lib, ushbu virusga "COVID-19" nomi berildi.

Shuni ham aloxida takidlash kerakki bu kasallik bemordan sog'lom insonga havo tomchi va maishiy muloqat orqali yuqadi. Virusni yuqtirib olgan odamda umumiy holsizlik, tumov, yo'tal,

bosh og'rishi, tomoqda og'riq, tana haroratining ko'tarilishi kuzatiladi. Kasallikni boshlanishi tumov va tumovsimon kasalliklar belgilariga o'xshash xolatida boshlanadi. Lekin bu kasallikni o'ziga xos belgilari ham mavjud. Yuqori isitma, quruq yutal, nafas olishning qiyinlashishi, yuqori nafas yo'llaridan ajralmalar ajralishiga (balg'am, burun oqishi). Bu xolatlar koronavirus infektsiyasiga xos alomatlar xisoblanadi. Koronavirusni barcha yoshdagi odamlar yuqtirishi mumkin. Kasallik simptomlari oddiy shamollash ko'rinishida boshlanib, tezlik bilan rivojlanadi va o'tkir respirator kasalligi vujudga keladi. O'pka shikastlanadi va insonning hayotiga xavf soluvchi o'tkir nafas yetishmovchiligi yuzaga keladi.

Xitoy yangi turdagi koronavirusning shtammi haqida ma'lumot bergach, olimlar infektsiyaga qarshi kurasha oladigan vaksina ustida bosh qotirishni boshlab yubordi. Janubiy Koreya, AQSH, Isroil, Germaniya, Kanada, Niderlandiya, Frantsiya va COVID-19 tarqalgan boshqa mamlakatlarda vaksina ishlab chiqish yuzasidan tajribalar o'tkazildi. Ushbu tadqiqotlarda turli institutlar va tijorat kompaniyalari ishtirok etishdi [3].


COVID-19 ga qarshi bir necha hil vaksinalar ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq etildi. Xususan O'zbekistonda COVID-19 infektsiyasiga qarshi emlash jarayonlari olib borildi. Axoli tanlovidan kelib chiqib asosan, «AstraZeneca», «Sputnik V », «Moderna», «Prizer» kabi bir necha xil turlari ishlatildi. Lekin bu vaksinalar xam 100% li chora bo'lmadi. Vaksina olgan aholi qatlamida xam qayta kasallanish xolatlari kuzatildi. Lekin vaksina olmaganlarga nisbatan kasallik yengillroq ko'rinishda o'tdi. Xozirgi kunga kelib esa COVID-19 ni boshqa shtamplari xam paydo bo'lmoqda. *Omicron* deb nomlangan yangi shtampi ko'proq bolalarda uchromaqda.

Nafaqat chel el olimlari balki o'zimizning O'zbekistonlik olimlarimiz ham koronavirus infektsiyasini yengish uchun ilmiy izlanishlar olib borishmoqda. Xususan O'zbekiston Tabobat Akademiyasi raisi, kimyo fanlari doktori, professor I.R.Asqarov va kimyo fanlari doktori professor R.Nuriddinov, Kanadaning Tongo Universiteti professori, F.Polyak hamda Latviya Fanlar Akademiyasi prezidenti, akademik I.Kalvin`shlar tomonidan o'simlik moddalari asosida viruslar profilaktikasi uchun "ANTIKOVIR" hamda "NONI-ANTIVIR" biologik faol oziq ovqat qo'shimchasi ixtiro qilindi. Ushbu juda ham kuchli antivirus faollik xususiyatiga ega bo'lgan "ANTIKOVIR" kapsulalari O'zbekiston Respublikasi sog`liqni saqlash vazirligi tomonidan ma'qullanib, mahalliy farmatsevtika korxonasida ishlab chiqarilmoqda va virusli kasalliklarni oldini olish amaliyotida qo'llanilmoqda [4].

Yana bir xavfli kasalliklardan biri bu-saraton kasalligidir. Saraton kasalligi anchadan beri yer yuzida tarqalgan havfli kasalliklar ichida ikkinchi o'rinni egallab turibdi. Bu havfli va ko'pincha o'limga olib keladigan kasallik ekanligi barchaga ma'lum. Hozirgi kunda ham davolash jarayonlari birmuncha murakkab sanalib, oxirgi bosqichlarida esa umuman davosiz hisoblanadi. Saraton kasalliklari olib kelgan o'limlarning deyarli yarmining oldini olish mumkin edi. Faqat 2015-yilning o'zida saratondan 1.6 mln kishi vafot etdi. Rivojlangan davlatlarda saraton ko'proq tarqalgan. Bunga sabab shaharlar aholisining hayot tarzi va ekologik buzilishlar. Bugunga kelib saraton yiliga sil va OITS dan ham ko'proq inson o'limiga sababchi bo'lmoqda. Dunyodagi har 8 ta o'limdan bittasi saraton haqida eslashga majbur qiladi [5].

Saraton kasalligi — epiteliy to'qimasidan rivojlanadigan xavfli o'sma. Epiteliy hujayrasi bor barcha a'zolar — teri, shilliq qavatlar, qizilo'ngach, o'pka, me'daichak yo'li, siydiktanosil a'zolari, shuningdek, miya va h. k. da paydo bo'ladi. Saraton hujayralari juda tez bo'linadi va rivojlanadi hamda atrofdagi sog'lom hujayralarni yemirib boradi. Boshqa havfli o'smalar kabi, saraton ham, odatda, o'zi o'rnashgan joydagi to'qimani yemirishi, retsidiv, metastaz berishi va organizmning umumiy holatiga ta'sir ko'rsatishi, kaxeksiya (qoq suyak bo'lib ozib ketish) bilan havfsiz o'smalardan farq qiladi. Saraton alohida viruslar faoliyati, shuningdek, odam organizmiga ta'siri hamda organizmning o'zida sodir bo'ladigan endogen (ichki) kantserogen moddalar, radioaktiv nurlar ta'sirida vujudga kelishi mumkin [6].

Qadim zamonlardan buyon ajdodlarimiz turli xil dorivor o'simliklarni har xil kasalliklarni davolash uchun ishlatib kelishgan. Jumladan, shuvoq turidagi o'simliklar sharq xalq tabobatida isitma, ich ketish, gijjalarga qarshi, ishtahani ochuvchi, immunitetni mustahkamlovchi vosita sifatida keng qo'llanilib kelingan. Asosan gijjalarga qarshi va bezgakni davolashda achchiq va bir yillik shuvoqlar ishlatiladi [7]. Bir yillik shuvoq (*Artemisia annua L.*) tarkibida yallig'lanishga qarshi seskviterpenoidlar, yani endoperoksid xalqa tutuvchi Artemizinin mavjud [8]. Xitoylik olim Tu Youyou Artemizinin va uning bezgakka qarshi xususiyatlarini o'rganib, 2015-yilda fiziologiya va tibbiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureatlaridan biri bo'ldi [9]. Artemizinin va uning hosilalari Peroral yuborilganda odatda yaxshi o'zlashtiriladi. Uning sog'lom ko'ngillilar va bezgak bilan kasallangan bemorlarda klinik jihatdan havfsiz ekanligi aniqlangan [10]. Juda kam holatlarda gepatotoksik, yengil-o'rtacha bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, qusish, charchoq va anorektsiya kabi nojo'ya ta'sirlarga ham egaligini ko'rsatdi. Umumiy xavfsizligiga asoslanib, jahon sog'liqni saqlash tashkiloti artesunatni og'ir bezgakni parenteral davolash uchun tavsiya qilgan [11].



Artemizinin

1972 yilda bir guruh xitoylik tadqiqotchilar an'anaviy xitoy dorivor o'simligi bir yillik shuvoqdan *Artemesia annua L. (Asteraceae)* geksan ekstraktidan kadinenning amorfen kichik guruhining sesquiterpen laktoni bo'lgan yangi bezgakka qarshi dori artemizininni ajratib oldilar . Bu o'simlik qadim zamonlardan beri isitma va bezgakni davolashda qo'llanilgan o'simlik hisoblanadi. Artemizinin sesquiterpen laktoni bo'lib, unda endoper oksidi birikmasi mavjud. Bu yuqori kislorodli sesquiterpen lakton peroksid, boshqa bezgakka qarshi vositalardan farqli o'laroq, azotni o'z ichiga olgan geterotsiklik halqa tizimlariga ega emas. Muhim fakt shundaki, artemizinin barqaror kristalldir va ekstraksiya yo'li bilan ajratib olish oson va uni tozalash jarayonlari arzondir [12].

Artemizininning karbonil guruhini natriy borgidrid ($NaBH_4$) yordamida yuqori rentabellikda digidroartemizinin ga osonlik bilan aylantirish mumkinligi aniqlandi, bu esa o'z navbatida bir qator birinchi avlod yarim sintetik analoglarini, keltirib chiqardi, shu jumladan artemeter va arteter moylarida, shuningdek, eruvchan natriy artesunat suvda yaxshi eriydi. Bu uchta analog *P. Falciparum* ning xloroxinga chidamli shtammlariga qarshi samarali bo'lgan juda kuchli bezgakka qarshi dorilarga aylanadi. Artemefir JSSTning og'ir MDR bezgaklarini davolash uchun muhim dorilar ro'yxatiga kiritilgan. Uolter Rid ilmiy-tadqiqot instituti artelin kislotasi deb nomlangan barqaror, suvda yeriydigan hosilani patentladi, u hayvonlarda sinovdan o'tkazildi. Artemizininni o'z ichiga olgan endoperoksidlarning asosiy afzalligi dorilarga ta`sirining yo'qligidir [12].

Artemizininni o'simlik tarkibidan ajratib olish jarayonlari ustida bir qancha olimlar ish olib borishgan va bir qancha usullarni amaliyotga taqdim etishgan. Ular hozirda ham qo'llanilmoqda.

O'simlik materialidan tahlil qilish uchun asosan quyidagi qismlar ajratildi: barglar, mayda yashil poyalar, kurtaklar. Gul, asosiy poya, yon ildiz va asosiy ildiz. Amaldagi tajribalarda toluol ekstraktidan 1,0 ml quruq bo'lgunga qadar bug'landi. Qoldiq 100 ml metanolda eritildi va tahlil qilish uchun ishlatilgan. Sesquiterpenoid tarkibi quruq vazn asosida hisoblab chiqilgan, ikkinchisi o'simlik qismlari namunalarini 60 ° C da 24 soat davomida quritgandan keyin aniqlanadi [12].

Biz O`zbekiston hududida o`sadigan shuvoq o`simligi tarkibidan artemisininni ajratib olish ustida tajribalar o`tkazdik. Artemizininni ajratib olish uchun Farg'ona vodiysida o'sadigan bir yillik shuvoqning yer ustki qismini avgust oyi birnchi daxasida gullash davrida yig'ib olib, quritib, maydalangan qismidan foydalanildi.


Uni ajratib olish uchun bir necha uslullardan foydalanildi.

1-usul. 200 g quruq xom-ashyo dastlab petroley efirda (70-100 ^{o}c) qaynatilib, ekstrakt fil`trlanib, erituvchi vakuumda haydaldi. Olingan to'q qo'ng'ir tusli (jami 16 ml dan 12 ml analiz uchun olib qo'yildi. **1-namuna**). Qolgan 4 ml 8 ml xloroformda eritildi va 42 ml atsetonitril qo'shildi. Hosil bo'lgan cho'kma fil`trlanib, fil`trat yuqori vakumda bug'latilganda 5,7 g saqichsimon qoldiq olindi. Qoldiqni ustunli xromatografiya metodi bilan tozalash 25x400 mm o'lchamli kolonkada 60 Å, 70-230 mesh o'lchamli silikagel va etilatsetat/xloroform (1:15) elyuenti bilan amalga oshirildi. Kolonkada ajralish YuQX da nazorat qilindi (R_f=0,65, EtOAc/$CHCl_3$ 1:15). Geksanda qayta kristallangandan so'ng 0,375 g (0,75 %) oq kristall modda olindi. Suyuqlanish harorati 152-154 ^{o}C bo'lib, adabiyotlarda (152-156 ^{o}C) [16] keltirilgan ma'lumotlarga mos keladi [10].

2-usul. 100 g maydalangan bir yillik shuvoq o'simligining yerustki qismi 3 marotaba 600 ml dan etanol bilan 30 ^{o}C haroratda 1,5 soatdan ekstraktsiya qilindi. Fil`trlab olingan ektraktlar birlashtirilib, rotorli bug'latgichda 170 ml gacha hajmi kamaytirildi (P=400 mm.sim.ust., T=65^{o}C). Olingan quyuq to'q yashil eritmaga suv qo'shib hajm 850 mlgacha yetkazildi va 250 ml dan 4 marotaba geksan bilan ekstraktsiya qilindi. Barcha ekstraktlar birlashtirilib, boshlang'ich hajmning 5% igacha vakuumda haydaldi (P=400 mm.sim.ust., T=43^{o}C). Olingan ekstrakt hajmiga nisbatan 20 % etilatsetat va 1 g faollangan ko'mir qo'shib, 30 daqiqa aralashtirildi hamda fil`trlandi. Fil`trat vakuumda kontsentrlandi va artemizinin mavjudligiga YuQX bilan tekshirildi (elyuent: geksan/etilatsetat 85:15; R_f=0,4). (tarkibidagi artemizinin miqdorini aniqlash uchun olindi. **2-namuna**) Qoldiqni ustunli xromatografiya metodi bilan tozalash 25x400 o'lchamli kolonkada 60 Å, 70-230 mesh o'lchamli silikagel va etilatsetat/geksan (15:85) elyuenti bilan amalga oshirildi. Elyuatlar birlashtirilib, erituvchi vakuumda haydaldi. Yashil rangli quyuq massa 5,5 ml ni tashkil etdi (tarkibidagi artemizinin miqdorini aniqlash uchun olindi. **3-namuna**).


1-jadval. Namunalarni yuqori samarali suyuqlik xromatigrafiyasida tahlili natijalari.

Namuna	**Artemizininning ushlanish vaqti, min.**	**Cho'qqi yuzasi**	**Namunadagi artemizininig ulushi, %**
Standart (artemisinin)	24,35	132010	100
1-namuna	24,36	4825	3,65
2-namuna	24,37	41881	31,72
3-namuna	24,30	64387	48,77



1-rasm. Artemizininning o'lchangan IQ-spektri.

Ajratib olingan Artemizininning IQ-spektri adabiyotlarda keltirilgan natijalarga mos kelishi ko'rildi. Xususan, 833 sm^{-1}, 931 sm^{-1}, 985 sm^{-1} dagi intensiv cho'qqilar molekuladagi –C–C– valent tebranishlariga, 1010 sm^{-1} va 1018 sm^{-1} sohalardagi cho'qqilar –C–O– valent tebranishlariga, 1115 sm^{-1} dagi kuchli intensivlikdagi cho'qqi –O–O– valent tebranishiga mos kelishi aniqlandi. 1385 sm^{-1} da $–CH_3$ valent tebranishiga va mos 1456 sm^{-1} da $–CH_2$ deformatsion tebranishiga mos o'rtacha intensivlikdagi cho'qqilar hosil bo'ldi. C=O bog'i valent tebranishiga tegishli kuchli intensiv cho'qqi 1735 sm^{-1} da namoyon bo'ladi. 2947 sm^{-1} hamda 2978 sm^{-1} dagi kuchsiz intensiv cho'qqilar $–CH_2–$ valent tebranishiga mos keladi.



2-rasm. Artemizininning mass-spektri.

Olingan Artemizininning mass-spektrida asosan dimer (565,3883 m/z, 100 %; 566,3920 m/z, 32 %) hamda molekulyar ioniga xos (283,2015 m/z, 38 %; 285,206 m/z, 1 %) bo‘lgan cho‘qqilar hosil bo‘lgan.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, O`zbekiston hududida o`sadigan bir yillik shuvoq o`simligi tarkibida artemizinin moddasining miqdori 1,74-2,67% ni tashkil etishi aniqlandi, hamda uni ajratib olish usuli yanada takomillashtirildi. Artemizinin moddasining mavjudligi IQ va mass-spektrometrik tahlil usullari yordamida tekshirildi va isbotlandi. Artemizinin moddasini bir qancha havfli kasalliklarga samarali ta`sirlari olimlar tomonidan o`rganilmoqda. Bu esa mamlakatimizda yovvoyi holda o`sadigan o`simlikni foydali maqsadlarda va xalq man`fati yo`lida foydalanish mumkinligini ko`rsatib beradi.

В современное время, когда наука стремительно развивается, видов болезней становится все больше. И они усложняются, приспосабливаются к внешней и внутренней среде, становятся более прочными. По данным экспертов Всемирной организации здравоохранения, 80% инфекционных заболеваний вызываются вирусами. В настоящее время вирусные заболевания являются одной из актуальнейших проблем медицины. В настоящее время идентифицировано несколько сотен типов вирусов, и каждый год продолжают появляться новые типы вирусов. В настоящее время миллиарды людей инфицированы тем или иным типом вирусного заболевания.

Малярия – одно из самых опасных инфекционных заболеваний 20 века. В то время почти половина человечества подвергалась риску заражения малярией, и ежегодно от малярии умирало 400 000 человек. Малярия известна человечеству с древних времен в различных формах и является одной из самых опасных широко распространенных

паразитарных болезней более чем в 100 странах мира. Ежегодно этот вирус вызывал заболевание у 300-500 миллионов человек и вызывал тяжелые последствия.

Простейшие малярийного паразита Plasmodium разнообразны, и четыре разных вида являются эндемичными для человека. Это: P. falciparum, P. vivex, P. malarae и P. ovale. Некоторые виды, P. Berghii и P. Yeolii, являются эндемиками других видов класса Mammalia. Это заболевание передается от человека к человеку через укус самки комара Anopheles. Вышеуказанные четыре типа вызывают быстрое повышение температуры тела в организме человека, но они редко приводят к летальному исходу. Остальной вид является возбудителем малигнизированной третичной малярии falciparum, которая при отсутствии лечения может привести к тяжелым последствиям и летальному исходу. Среди малярийных паразитов, обнаруженных в организме, P. falciparum стал устойчивым практически ко всем доступным лекарствам, поэтому он стал основной причиной серьезных заболеваний и смерти. Летальность у больных с тяжелой и осложненной формой заболевания составляет 20-50%. Повышение устойчивости малярийных паразитов к противомалярийным препаратам на основе хинолина в значительной степени способствует повторному появлению этого заболевания в качестве серьезной проблемы в секторе здравоохранения и его распространению в новые районы и группы населения [1].

Малярию вызывают насекомые Plasmodium. Эти паразиты переносятся малярийными комарами, которые кусают людей. Заболевание вызывается одноклеточной паразитической бактерией, попадающей в кровь человека через укус малярийного комара. Основными методами борьбы с малярией являются осушение болот, в которых размножаются комары, противомоскитные сетки и препараты, предупреждающие заболевание на ранних стадиях (хотя есть данные, что Plasmodium может противостоять им). Малярия остается одной из старейших и наиболее серьезных причин смерти, особенно среди детей. Вакцина против малярии, повышающая иммунитет, — это долгосрочная разработка, несмотря на годы интенсивной работы и потраченные миллионы долларов. Исследования были опробованы в Гане, Малави и Кении. По имеющимся данным, эта вакцина защищает от малярии в среднем в 40% случаев и на срок не более четырех лет. Это очень слабый показатель по сравнению с прививками от других болезней. Однако эксперты предупреждают, что вакцина вряд ли будет единственным лекарством от малярии [2].

Еще одним вирусным заболеванием, угрожающим сегодня всему миру, является коронавирусная инфекция. Пневмония, которую вызывает вирус, относящийся к группе коронавирусов, впервые появилась в декабре 2019 года у представителей местного населения, связанного с рынком животных и морепродуктов Хуанань, расположенным в городе Ухань, провинция Хубэй, Китайская Народная Республика. На этом рынке продаются морепродукты, собачье мясо, змеи и даже летучие мыши. Свойства нового коронавируса в настоящее время изучаются во многих лабораториях по всему миру. В результате исследований ученых был найден возбудитель заболевания, и этому вирусу было присвоено название «COVID-19».

Следует отметить, что это заболевание передается от больного к здоровому человеку воздушно-капельным и бытовым путем. У человека, зараженного вирусом, наблюдают общую слабость, грипп, кашель, головную боль, боль в горле, повышение температуры тела. Начало заболевания начинается с симптомов, сходных с гриппом и гриппоподобными заболеваниями. Но и у этого заболевания есть свои симптомы. Высокая температура, сухой кашель, затрудненное дыхание, выделения из верхних дыхательных путей (мокрота, насморк). Эти состояния считаются симптомами коронавирусной инфекции. Люди всех возрастов могут заразиться коронавирусом. Симптомы заболевания начинаются как

простая простуда, быстро развиваются, возникает острое респираторное заболевание. Легкие повреждаются и возникает опасная для жизни острая дыхательная недостаточность.

После того, как в Китае был обнаружен новый штамм коронавируса, ученые начали искать вакцину, которая могла бы бороться с инфекцией. Эксперименты по разработке вакцины проводились в Южной Корее, США, Израиле, Германии, Канаде, Нидерландах, Франции и других странах, где распространился COVID-19. В этих исследованиях участвовали различные учреждения и коммерческие компании [3].

Разработано и внедрено на практике несколько вакцин против COVID-19. В частности, в Узбекистане проведена вакцинация против инфекции COVID-19. На основе отбора населения использовались несколько видов, такие как «АстраЗенека», «Спутник В», «Модерна», «Призер». Но эти вакцины не были 100% решением. Случаи повторного заражения наблюдались и среди населения, получившего вакцину. Но по сравнению с теми, кто не получил вакцину, болезнь протекала в более легкой форме. Сегодня появляются другие марки COVID-19. Новый штамп под названием Омикрон обнаруживается у большего числа детей.

Не только зарубежные ученые, но и наши узбекские ученые проводят научные исследования по преодолению коронавирусной инфекции. В частности, председатель Академии медицины Узбекистана, д.х.н., профессор И.Р.Аскаров и д.х.н., профессор Р.Нуриддинов, профессор Университета Тонго Канады Ф.Поляк, президент Латвийской академии академика И. Кальвиньшлара на основе растительных веществ Для профилактики вирусов созданы биологически активные добавки к пище "АНТИКОВИР" и "НОНИ-АНТИВИР". Капсулы «АНТИКОВИР», обладающие очень сильным противовирусным действием, одобрены Министерством здравоохранения Республики Узбекистан, производятся на местном фармацевтическом предприятии и используются в практике профилактики вирусных заболеваний [4].

Еще одно опасное заболевание – рак. Рак долгое время был вторым по опасности заболеванием на земле. Всем известно, что это опасное и часто смертельное заболевание. Даже сейчас лечебные процессы считаются несколько сложными, а на последних стадиях и вовсе неизлечимыми. Почти половину смертей от рака можно было бы предотвратить. Только в 2015 году от рака умерло 1,6 миллиона человек. Рак чаще встречается в развитых странах. Причиной этого является образ жизни городских жителей и экологические нарушения. Сегодня рак вызывает больше смертей, чем туберкулез и СПИД. Одна из каждых 8 смертей в мире связана с раком [5].

Рак – злокачественная опухоль, развивающаяся из эпителиальной ткани. Все органы с эпителиальными клетками - кожа, слизистые оболочки, пищевод, легкие, желудочковый тракт, мочеполовые органы, а также головной мозг и др. к. появляется в Раковые клетки делятся и растут очень быстро и разрушают окружающие здоровые клетки. Как и другие злокачественные опухоли, рак обычно разрушает ткани в том месте, где он находится, рецидивирует, дает метастазы и влияет на общее состояние организма, отличаясь от доброкачественных опухолей кахексией. Рак может быть вызван активностью некоторых вирусов, а также воздействием на организм человека, а также влиянием эндогенных (внутренних) канцерогенных веществ, радиоактивных лучей, возникающих в самом организме [6].

С давних времен наши предки использовали различные лекарственные растения для лечения различных заболеваний. В частности, растения полыни широко использовались в восточной народной медицине как жаропонижающее, противодиарейное, противогельминтное, возбуждающее аппетит и иммуностимулирующее средство. Полынь и однолетнюю полынь в основном используют против глистов и при лечении малярии [7].

Полынь однолетняя (Artemisia annua L.) содержит противовоспалительные сесквитерпеноиды, а именно поглотитель эндоперекисей артемизинин [8]. Китайский ученый Ту Юю изучал артемизинин и его противомалярийные свойства и стал одним из лауреатов Нобелевской премии по физиологии и медицине в 2015 г. [9]. Артемизинин и его производные обычно хорошо всасываются при пероральном введении. Было обнаружено, что он клинически безопасен у здоровых добровольцев и больных малярией [10]. В очень редких случаях было показано, что он имеет побочные эффекты, такие как гепатотоксичность, легкая или умеренная головная боль, тошнота, рвота, усталость и анорексия. На основании его общей безопасности Всемирная организация здравоохранения рекомендовала артесунат для парентерального лечения тяжелой малярии [11].



Артемизинин

В 1972 г. группа китайских исследователей выделила новый противомалярийный препарат артемизинин, сесквитерпеновый лактон аморфной подгруппы кадинена, из гексанового экстракта традиционного китайского лекарственного растения Artemesia annua L. (Asteraceae). Это растение использовалось для лечения лихорадки и малярии с древних времен. Артемизинин представляет собой сесквитерпеновый лактон, содержащий эндопероксидное соединение. Этот высокооксигенированный пероксид сесквитерпенового лактона, в отличие от других противомалярийных средств, не имеет азотсодержащих гетероциклических кольцевых систем. Важным фактом является то, что артемизинин является стабильным кристаллом и легко извлекается путем экстракции, а процессы его очистки дешевы [12].

Было обнаружено, что карбонильная группа артемизинина может быть легко преобразована в дигидроартемизинин с высоким выходом с использованием боргидрида натрия ($NaBH_4$), что, в свою очередь, привело к ряду полусинтетических аналогов первого поколения, включая артеметер и артемизиновое масло, а также воду- растворимый артесунат натрия. Эти три аналога делают сильнодействующие противомалярийные препараты эффективными против устойчивых к хлорохину штаммов P. falciparum. Артемефир включен в список основных лекарственных средств BO_3 для лечения тяжелой формы малярии с множественной лекарственной устойчивостью. Научно-исследовательский институт Уолтера Рида запатентовал стабильную водорастворимую производную под названием артелловая кислота, которая была протестирована на животных. Основным преимуществом эндопероксидов, содержащих артемизинин, является отсутствие действия на лекарственные препараты [12].

Ряд ученых работали над процессом извлечения артемизинина из растительного состава и представили ряд методов для практики. Они все еще используются сегодня.

От растительного материала для анализа в основном отделяли следующие части: листья, мелкие зеленые стебли, бутоны. Цветок, главный стебель, боковой корень и главный корень. В использованных опытах 1,0 мл толуольного экстракта выпаривали досуха. Остаток растворяли в 100 мл метанола и использовали для анализа. Содержание

сесквитерпеноидов рассчитывали по сухой массе, которую определяли после сушки образцов частей растений при 60 °C в течение 24 ч [12].

Нами были проведены опыты по извлечению артемизинина из состава полыни, произрастающей в Узбекистане. Для извлечения артемизинина собирали, сушили и измельчали надземную часть однолетней полыни, произрастающей в Ферганской долине, в период цветения в первой дахе августа.


Для его извлечения использовалось несколько методов.

Способ 1. 200 г сухого сырья предварительно кипятили в петролейном эфире (70-100°C), экстракт фильтровали и растворитель выпаривали под вакуумом. Образовавшийся темно-коричневый цвет (из общего объема 16 мл на анализ было взято 12 мл. Проба 1). Оставшиеся 4 мл растворяли в 8 мл хлороформа и добавляли 42 мл ацетонитрила. Образовавшийся осадок отфильтровывали и фильтрат упаривали в высоком вакууме, получая 5,7 г липкого остатка. Остаток очищали колоночной хроматографией на колонке 25×400 мм с силикагелем 60 Å, размером 70-230 меш и элюентом этилацетат/хлороформ (1:15). Разделение колонок контролировали в ТСХ (Rf=0,65, EtOAc/$CHCl_3$ 1:15). После перекристаллизации из гексана получили 0,375 г (0,75 %) белого кристаллического вещества. Температура плавления составляет 152-154 ^oC, что соответствует данным, приведенным в литературе (152-156 ^oC) [10].

Способ 2. 100 г измельченного корня полыни однолетней 3 раза экстрагировали 600 мл этанола при температуре 30°C в течение 1,5 часов. Отфильтрованные экстракты объединяли и доводили объем до 170 мл на роторном испарителе (P=400 мм сим выше, T=65^{o}C). Полученный темно-зеленый раствор доводили до 850 мл добавлением воды и экстрагировали 4 раза гексаном из 250 мл. Все экстракты объединяли и откачивали под вакуумом до 5% от исходного объема (P=400 мм рт.ст., T=43°C). К полученному экстракту добавляли 20% этилацетата и 1 г активированного угля, перемешивали в течение 30 минут и фильтровали. Фильтрат концентрировали в вакууме и анализировали на присутствие артемизинина с помощью ВЭЖХ (элюент: гексан/этилацетат 85:15; Rf=0,4). (принято для определения количества артемизинина в его содержании. Образец 2) Остаток очищали колоночной хроматографией на колонке 25×400 с силикагелем 60 Å, размером 70-230 меш и элюентом этилацетат/гексан (15:85). Элюаты объединяли и растворитель выпаривали в вакууме. Темно-зеленая масса 5,5 мл (взята для определения содержания артемизинина. Проба 3).


Таблица 1. Результаты анализа проб в высокоэффективной жидкостной хроматографии.

Образец	**Время удерживания артемизинина, мин.**	**Пиковая поверхность**	**Процентное содержание артемизинина в образце, %**
Стандарт (артемизинин)	24,35	132010	100
1- Образец	24,36	4825	3,65
2- Образец	24,37	41881	31,72
3- Образец	24,30	64387	48,77



Фигура 1. Измерен ИК-спектр артемизинина.

Видно, что ИК-спектр выделенного артемизинина соответствует результатам, представленным в литературе. В частности, интенсивные пики при 833 $см^{-1}$, 931 $см^{-1}$, 985 $см^{-1}$ относятся к валентным колебаниям –C—C– в молекуле, а пики при 1010 см-1 и 1018 см-1 связаны с –C¬O–. Было обнаружено, что сильный пик интенсивности при 1115 $см^{-1}$ соответствует валентному колебанию –O–O–. При 1385 $см^{-1}$ формируются пики, соответствующие валентному колебанию -CH_3 и соответствующие деформационному колебанию -CH_2 при 1456 $см^{-1}$. Сильный интенсивный пик, соответствующий валентному колебанию связи C=O, появляется при 1735 $см^{-1}$. Слабые интенсивные пики при 2947 $см^{-1}$ и 2978 $см^{-1}$ соответствуют валентному колебанию –CH_2–.



Фигура 2. Масс-спектр артемизинина.

В масс-спектре полученного артемизинина преобладают димер (565,3883 м/з, 100%; 566,3920 м/з, 32%) и молекулярный ион (283,2015 м/з, 38%; 285,206 м/з, 1%)). образовались пики.

В заключение можно сказать, что содержание артемизинина в однолетнем растении полыни, произрастающей в Узбекистане, установлено на уровне 1,74-2,67 %, а способ его извлечения в дальнейшем совершенствовался. Наличие субстанции артемизинина подтверждено методами ИК и масс-спектрометрического анализа. Ученые изучают эффективное воздействие артемизинина на ряд опасных заболеваний. Это показывает, что растение, произрастающее в нашей стране в диком виде, можно использовать в полезных целях и на благо людей.

In modern times, when science is rapidly developing, there are more and more types of diseases. And they become more complex, adapt to the external and internal environment, become more durable. According to experts from the World Health Organization, 80% of infectious diseases are caused by viruses. Currently, viral diseases are one of the most pressing problems in medicine. Currently, several hundred types of viruses have been identified, and new types of viruses continue to appear every year. Currently, billions of people are infected with some type of viral disease.

